

**ТИЛ, АДАБИЁТ, ТАРЖИМА, АДАБИЙ
ТАНҚИДЧИЛИК ХАЛҚАРО ИЛМИЙ
ФОРУМИ: ЗАМОНАВИЙ
ЁНДАШУВЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР
халқаро илмий-амалий анжуман материаллари
ТЎПЛАМИ**

2021 йил 26-27 март



Бухоро

**Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта
махсус таълим вазирлиги
Бухоро давлат университети**



**Тил, адабиёт, таржима, адабий танқидчилик халқаро
илмий форуми: замонавий ёндашувлар ва
истиқболлар**

**мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман
материаллари
ТЎПЛАМИ**

Бухоро - 2021

«Тил, адабиёт, таржима, адабий танқидчилик халқаро илмий форуми: замонавий ёндашувлар ва истиқболлар» халқаро илмий-амалий анжумани материаллари. Бухоро – 2021. – 666 бет

Масъул муҳаррирлар:

Менглиев Бахтиёр Ражабович – филология фанлари доктори, профессор

Жўраева Малоҳат Муҳаммадовна – филология фанлари доктори, доцент

Таҳрир хайъати:

О.М.Файзуллаев, М.Б.Аҳмедова, Н.Б. Атабоев, Ж.И.Мизрабова,
З.Т.Сафарова, З.Р.Собирова, З.Ғ.Рўзимуродова, У.С.Тоирова

Тақризчилар:

Бақоева Муҳаббат Қаюмовна – ф.ф.д., профессор

Қаршибаева Улжан Давировна – ф.ф.д., профессор

Мақолаларни тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Инглиз адабиётшунослиги кафедраси доценти, ф.ф.ф.д. М.Б.Аҳмедова

Ушбу тўпламда жамланган мақолалар хорижий тилларни ўқитишнинг замонавий ёндашувлари ва истиқболлари, корпус лингвистикаси масалалари, медиалингвистика ва лингвистик тадқиқотлар, қиёсий адабиётшуносликнинг долзарб муаммолари, Ўзбекистонда таржима мактаби яратиш ва уни ривожлантиришда инновацион ғоя ва технологияларни қўллаш масалалари доирасида мутахассисларнинг тажриба ва фикр алмашинувини таъминлашга хизмат қилади.

Ҳавола этилаётган мақолаларнинг савияси ва мазмуни учун муаллифларнинг ўзлари масъул ва жавобгардир.

Bugungi kunda mamlakatimizda dunyoning nufuzli mamlakatlaridan ko'plab olimlar, delegatlar ishtirok etadigan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlar tashkil etilishi bunday anjumanlarda, albatta, chet tillarini puxta o'zlashtirgan, yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan tarjimonlarga ehtiyozni yanada orttiradi.

Shunisi ahamiyatliki, O'zbekistonda sinxron tarjima yo'nalishi ustida ham sezilarli taqqiqotlarni qayd etishimiz mumkin. Jumladan, O. Mo'minov, I. G'afurov, G'. Salomov, N. Qambarov va boshqa olimlarning tarjimashunoslikka doir bir necha o'quv qo'llanmalarida sinxron tarjima, uning xususiyatlari va metodlari, jarayon davomida vujudga keladigan muammo va qiyinchiliklar to'g'risida fikrlar bayon qilingan. Ammo shuni ham ta'kidlash joizki, bugungi kunga qadar ushbu muammolarga konseptual muammo, ya'ni yaxlit bir tizim sifatida qaralmagan. Taniqli olim N.A. Shermuhammedova konseptual muammoga quyidagicha ta'rif beradi: "Konseptual muammolar ilgari olingan ko'p sonli ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lib, ularni tartibga solish va talqin qilish, oqibatlarini keltirib chiqarish va gipotezalarni shakllantirish, mantiqiy izchillik talablariga muvofiq qarama-qarshiliklarni bartaraf etishni nazarda tutadi" [4; 332]. Shunday ekan ushbu muammolarni o'rganishda ilgari olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va mantiqiy ketma-ketlik asosida masalani yoritish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, tarjimani ma'lum turlarga ajratishda bir necha mezonlar mavjud. Taniqli olim Z.G. Proshinaning quyidagi klassifikatsiyasi bir necha kriteriyalarga asoslanib tarjima turlarni tasniflab beradi: [2; 15]

- 1) *tarjimani kim amalga oshirishiga qarab*: a) inson tarjimasi; b) kompyuter tarjimasi;
- 2) *nutq shakliga ko'ra*: a) yozma tarjima; b) matnning og'zaki tarjimasi (on-sight translation); c) og'zaki nutqning og'zaki tarjimasi;
- 3) *manbani idrok etish usuliga ko'ra*: a) ko'rib tarjima qilish; b) eshitib tarjima qilish;
- 4) *manbani idrok etish va tarjima qilish orasidagi vaqtning qiymatiga ko'ra*: a) ketma-ket tarjima qilish; b) sinxron tarjima qilish;
- 5) *ishlatilayotgan tillar soniga qarab*: a) bir tomonlama; b) ikki tomonlama tarjima qilish;
- 6) *tarjima yo'nalishiga ko'ra*: a) to'g'ridan-to'g'ri (ona tilga); b) qarama-qarshi tarjima qilish (xorijiy tilga);
- 7) *tarjima metodlarining qo'llanishiga ko'ra*: a) yozib olib tarjima qilish; b) so'zma-so'z tarjima qilish;

Tadqiqotimiz predmeti hisoblangan sinxron tarjima (grekcha "sunkhronos", "sun"- "birgalikda", "khronos"- "vaqt") vaqt bilan bog'liq tarjima turi hisoblanadi. U shunday tarjima turiki, unda tarjimon so'zlovchining nutqini o'sha vaqtning o'zida bir

yoki ikki kishiga tarjima qilib beradi. Hozirda tarjimon kabinada o'tirib, maxsus eshitish vositalari orqali so'zlovchini tinglaydi, so'ng mikrofon orqali tarjima qiladi. Ishtirokchilar konferensiya zalida eshitish vositalari orqali tinglashadi. Konferensiyalarda keng qo'llanilganligi uchun ushbu tarjima turi "konferens tarjima" deb ham ataladi.

Sinxron tarjima dastlab I Jahon urushi davrida vujudga kelgan. Muzokaralar fransuz tilida olib borilgani tufayli amerikaliklar va inglizlar tarjimonlarga ehtiyoj sezganlar. Ayniqsa, Nyurenberg va Tokio sud jarayonlari (1946-1968-yillar) dan so'ng konferens tarjima keng qamrovli bo'lib ketdi. 60-yillar oxiri va 70-yillar boshlarida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borildi [1; 8]. Bugungi kunda, hattoki, kompyuter tarjimon-darsturlari keng tarqalgan bo'lsa ham, sinxron tarjimonlar va ularni yetkazib beradigan muassasalarga ehtiyoj katta. Chunki sinxron tarjima juda ham murakkab jarayon. Bunda tarjimon so'zlovchining nutq ohangi, tezligiga, qolaversa, nutqda ishlatilayotgan stilistik unsurlarga va boshqa juda ko'plab (kompyuter ilg'amaydigan) jihatlarga e'tibor qaratishi muhimdir. Aks holda, so'zlovchi va tinglovchi orasida talaygina tushunmovchiliklar yuzaga keladi.

Anjumanlarda so'zlovchi nutqini to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilayotgan tarjimon, avvalo, ikkala tilning sintaktik qurilishi bir-biriga qay darajada mos kelishini inobatga olishi darkor. Chunonchi, og'zaki matnni ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girayotganda asosiy e'tiborni gapda so'zlarning o'zaro sintaktik aloqasiga qaratish lozim. Chunki qat'iy so'z tartibiga ega bo'gan ingliz tili gap bo'laklari joylashuvi jihatdan o'zbek tilidan farq qiladi:

The researcher used several methods while investigating the matter

(Gap bo'laklari joylashuvi: ega+ kesim+aniqlovchi+to'ldiruvchi+hol)

Tadqiqotchi masalani aniqlash(yoritish)da bir necha usullardan foydalandi

(Gap bo'laklari joylashuvi: ega+ to'ldiruvchi +aniqlovchi+ +hol+ kesim)

Konferensiya tarjimonlari odatda sintaktik qisqartirishlardan foydalanishadi. Bunday qisqartirishlar murakkab gaplarni bir necha soddaroq gaplarga bo'lib aytish (*The chairman left for Tokio where he contracted with a famous corporation which was established a few years ago. — Rais Tokioga jo'nab ketdi. U yerda bir necha yil ilgari tashkil etilgan korporatsiya bilan shartnoma imzoladi*), majhul nisbatdagi gaplarni sifatdoshli birikmalarga aylantirish (*The students who were mentioned at the meeting made presentations. — Uchrashuvda nomlari tilga olingan talabalar taqdimotlar qilishdi*) yoki bir necha so'z birikmalarini bir so'z bilan aytish ("visual aids" — "ko'rgazmalar") orqali amalga oshirilishi mumkin.

Sinxron tarjimada shu tilda so'zlovchi xalqning xususiyatlarini, milliy mentalitet masalalarini hisobga olish ham dolzarbdir. Zero, bir tilda ijobiy ma'noga ega so'z va so'z birikmalari boshqa bir tilda salbiy jihatga ega bo'lishi mumkin ("*bachelor*" — "*bakalavr*"; bu so'z yana "*uylanmagan, uylanishni xohlamaydigan mas'uliyatsiz kishi*")

ma'nosida ham keladi). Shuni ham ta'kidlash joizki, ma'lum bir xalqlar turmush tarzining asosini tashkil qiluvchi tushunchalar boshqa bir millat vakillariga umuman notanish bo'lishi tabiiy. Bunday vaziyatlarda o'sha so'zlarni o'zini tarjima qilmagan holda taqdim etish yoki izohlab berish mumkin ("*sumalyak*"; *a special dish of Navruz holiday*). Yuqoridagi qiyinchilik tug'diruvchi masalalarni hisobga olib, aytish joizki, tarjimon yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish bilan bir qatorda tez fikrlay oladigan, zehni o'tkir bo'lmog'i darkor.

Shu paytgacha G'arb olimlari o'z ona tillari va boshqa bir xorijiy tillarning sinxron tarjima usullari va metodlari ustida ish olib borishgan. Ular qo'llagan metod va usullarning hammasidan ham inglizcha-o'zbekcha yoki o'zbekcha-inglizcha sinxron tarjimada foydalanib bo'lmaydi. Chunki o'zbek tili Yevropa tillaridan farqli o'laroq boshqa tillar oilasiga mansubdir hamda uning sintaktik va morfologik qurilishi tubdan farq qiladi. Shu boisdan, o'zbek tilidan ingliz tiliga va ingliz tilidan o'zbek tiliga sinxron tarjima qilish metodlari va nazariyalari ustida yetarli darajada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmaganligini hisob olib, shu masala yuzasidan chuqur tadqiqot ishlarini olib borishni o'zimizga maqsad qilib oldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O. Mo'minov. Sinxron tarjima. O'quv qo'llanma. –Toshkent,2005
2. Z.G.Proshina. Theory of translation (English and Russian). Coursebook. – Vladivostok: Izdatelstvo Dalnevostochnogo Universiteta,2008 (3rd edition)
3. I. G'afurov et al. Tarjima nazariyasi. –Toshkent, 2012
4. Z.H. Usmonova. Features of fantastic works (on the example of the works of ray bradbury, isaac asimov and stephen king). International Journal of Psychosocial Rehabilitation. Volume 24, Issue 6

BILDUNGSROMAN AS A LITERARY GENRE

Islomova Gulnoza Xotam qizi
Uzbekistan State World Languages University,
the 2st year student of Master's Department,
Tashkent, Uzbekistan
Email address: islomovagulnoza1650@gmail.com

Abstract

The novel has a strong tradition and position in English literature. In Great Britain, it can trace its roots back to Daniel Defoe's Robinson Crusoe in 1719 (Kroll). Since then, the British novel has grown in recognition. It was especially fame in Victorian England. Many writers of the time were producing novels focused on the journey from childhood to adulthood: Charlotte Bronte wrote 'Jane Eyre', George Eliot wrote 'The Mill on the Floss', and Charles Dickens wrote 'David Copperfield' and 'Great Expectations'. All of these novels trace the growth of a protagonist from the young age to adolescence period.

<i>Islamova Dinara Azamatovna, Saydazzamova Chamangul Olimjon qizi.</i> Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi maqollarning leksik-semantik xususiyatlari.....	451
<i>Sulaymonova Dilnoz Xatmazayevna.</i> INGLIZ ROMANTIZM ADABIYOTIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	453
<i>Кодыров А.А. Нугматова Л.Х.</i> ТИПЫ ЛЕКСИКО-ГРАММАТИЧЕСКИХ ТРАНСФОРМАЦИЙ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	456
<i>Давыдходжаева Ш.И.</i> АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА: ПЕРЕВОДЧЕСКАЯ ОШИБКА.....	461
<i>М.А.Бокарева.</i> РЕЦЕПЦИЯ ЖАНРОВЫХ УСТАНОВОК И.А.ГОНЧАРОВА В РОМАНЕ В.В.НАБОКОВА «ЗАЩИТА ЛУЖИНА».	465
<i>Махмудова Юлдуз Аскар қизи.</i> ВОСТОЧНЫЕ МОТИВЫ В ПОЭЗИИ С.ЕСЕНИНА.....	470
<i>Ишанкулова Диёра Алловидиновна.</i> ПОИСКИ ПОДЛИННОГО ХАЙЯМА.....	474
<i>Нуридинова М. Ж.</i> ЖАНРОВО-СТИЛЕВАЯ АМБИВАЛЕНТНОСТЬ РОМАНА А.БИТОВА «ПУШКИНСКИЙ ДОМ».....	481
<i>Рамазанова Нозима.</i> ОБРАЗ «МАЛЕНЬКОГО ЧЕЛОВЕКА» В РУССКОЙ ЖЕНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА Н.ТЕФФИ, Л.ПЕТРУШЕВСКОЙ, Т.ТОЛСТОЙ)	484
<i>Исмаилов Ф.Ф.</i> ПРОТИВОПОСТАВЛЕНИЕ ВРЕМЕННОГО И ВЕЧНОГО В СОВРЕМЕННОЙ ПРОЗЕ.....	489
<i>Каландарова Фарангиз Касимовна.</i> СВОЕОБРАЗИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТАФОР В РОМАНЕ М.БУЛГАКОВА «МАСТЕР И МАРГАРИТА».....	494
<i>Djalilova Z.</i> FLOWERS SYMBOLIZING HUMAN FEATURES IN ENGLISH ROMANTIC POETRY	497
<i>Samandarova Sojida Furqat qizi.</i> IDEOLOGY IN GEORGE ORWELL’S POLITICAL NOVEL “NINETEEN EIGHTY FOUR”	500
<i>Abdullayeva G.G.</i> TARJIMASHUNOSLIKDA SINXRON TARJIMANING TUTGAN O’RNI	504
<i>Islomova Gulnoza Xotam qizi.</i> BILDUNGSROMAN AS A LITERARY GENRE	506
<i>Qurbonova Oltinoy Bekmurotovna.</i> IBROHIM G’AFUROVNING SO’Z QO’LLASH MANORATI	510
<i>Мухаммедова Нилуфар Элибоевна.</i> МИЛЛИЙ ИНГЛИЗ АЁЛ ХАРАКТЕРИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	513
<i>Усмонова Зарина Ҳабибовна.</i> СТИВЕН КИНГ АСАРЛАРИДАГИ ЗАМОН ВА МАКОН МУАММОСИ	515
<i>Kakharova Mohigul Yusufovna</i> PSYCHOLOGY OF HEROES IN ENGLISH REALISTIC AND ADVENTURE NOVELS.....	517
<i>Исмоилова М.Н.</i> РОЛЬ ЦИТАТЫ В ПОСТМОДЕРНИСТСКОЙ ПОВЕСТИ А.КОРОЛЕВА «ГОЛОВА ГОГОЛЯ».....	521